

## MAKEDONIYALIK ALEKSANDIRNING SIYOSIY TARIXI

*Adamboyev Boburjon Umrboy O'g'li*

*Urganch Davlat Universiteti*

*Ijtimoiy-Iqtisodiy Fanlar fakulteti*

*Tarix (mintaqalar va yo'nalishlar bo'yicha)*

*yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Aleksandrning hayoti va umri davomida yuzaga keltirgan davlati haqida qisqacha ma'lumot beradi. Bu maqola Aleksandr Makodoniskiyning tarixini umumlashtirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga Aleksandr haqida ma'lumotlarga ega bo'lish uchun qisqacha asos bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Makedoniya, Makedoniyalik Aleksandr, Filipp II, Sharqqa yurish, satraplik, O'rta Osiyo, Spitamén.

**Аннотация:** В данной статье представлен краткий обзор жизни Александра и государства, созданного им при жизни. В данной статье обобщается история Александра Македонского. В то же время это будет кратким основанием для получения информации об Александре.

**Ключевые слова:** Македония, Александр Македонский, Филипп II, поход на Восток, сатрапия, Средняя Азия, Спитамен.

**Abstract:** This article provides a brief overview of Alexander's life and the state he created during his lifetime. This article serves to summarize the history of Aleksandr Makodonisky. At the same time, it will be a brief basis for having information about Alexander.

**Key words:** Macedonia, Alexander the Great, Philip II, March to the East, satrapy, Central Asia, Spitamén.

Makedoniyani qadimgi poytaxti Pellaga qaytishni istamagan Iskandar o'z davlatining poytaxti qilib qadimgi shahar Bobilni tanladi. U Kaspiy dengizini o'rganish uchun tekshiruvchi ekspeditsiya tashkil qildi, Arabiston yarim oroli qirg'oqlarini tekshirishga buyruq berdi. Iskandar yurishlari natijasida g'aibda Adriatika dengizidan Sharqqa Hindistongacha, Shimolda Kavkaz tog'laridan janubda Nil daryosi o'rta oqimigacha cho'zilgan hududni qamrab olgan ulkan davlat vujudga keldi.' Bu davlat hududiy-etnik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bilan awalgi ahamoniyalar davlatini eslatar edi. Iskandar o'zining ulkan davlatini uzoq boshqara olmadi. U er. av. 323-yilda 32 yoshda Bobil shahrida vafot etdi. Iskandaming oiimidan so'ng uning ulkan davlati parchalana boshladi. Oxir-oqibatda u bosib olgan hududlarda Ellin davlatlari tizimi shakllandi. Er. av. 336-yil yozida Filipp II qizining to'yida o'z qo'riqchisi tomonidan o'ldirildi. 20 yoshli Iskandar podsho bo'ldi. Filipp II ning o'limidan

foydalangan yunon shaharlari Fiva shahri boshchiligida Makedoniyaga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Yunonlar uchun kutilmagan holda Iskandar bu qo'zg'olonni shafqatsiz bostirdi. Fiva shahri buzib tashlandi, uning tirik qolgan qo'zg'olonchi aholisi qul qilib sotib yuborildi. Ikki yildan keyin er. aw. 334-yilda nihoyatda puxta tayyogarlikdan keyin yunon shaharlari piyodalari bilan kuchaytirilgan makedon qo'shinlari Gellespont bo'g'ozidan o'tib Osiyo hududiga kirdilar. Urush e'lon qilish uchun bahona bo'lib, er. aw. V asr o'rtalarida yunon-fors urushlari davrida yunon ibodatxonalarining forslar tomonidan oyoq-osti qilishi bo'ldi. Bu mafkuraviy shiordan Iskandar yunon-makedon kuchlarini birlashtirishda foydalanadi. Forslar bilan birinchi jang Kichik Osiyodagi Granik daryosi bo'yida bo'ldi. Bu jangda yunon-makedonlar Eronning Kichik Osiyo satraplari va yunon yollanma askarlari qo'shinlari bilan jang qildilar. Eron podshosi Doro III va uning muntazam qo'shini granik jangida ishtirok etmadilar. Bu jangdan keyin Iskandar Kichik Osiyo qirg'og'idagi yunon shaharlarini forslardan ozod qildi, Kichik Osiyoning katta qismini bo'ysundirdi, Sard va Gordiy shaharlarini ishg'ol qildi. Damashq shahrida Doro III ning xazinasini bosib olindi, bu Iskandar qo'shinlarining moddiy ta'minotini ancha yaxshiladi. Tir va G'azo shaharlari bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. G'azoni bosib olinishi yunon-makedonlarga Misrga yo'l ochdi. Doro III yordamidan mahrum bo'lgan fors satrapi g'oliblarga taslim bo'ldi. Misrliklar Iskandarni fors zulmidan xaloskor sifatida kutib oldilar. O'rtayer dengizi qirg'og'ida Nil daryosida er. aw. 331-yilda Iskandariya shahriga' asos solindi. Bu shahar Misrda yangi hokimiyatni markazi, muhim savdo porti bo'lib xizmat qildi. Misr hududiga bu shaharga asos solinishi Sharqda shaharlar qurilishi siyosatini boshlanishi edi. Iskandar Memfis shahrida toj kiydi va bu bilan Misrda o'z hokimiyati qonuniyligini ta'kidladi. Er. aw. 331-yil bahoridan Sharqqa yurishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Dajla daryosidan uzoq bo'lmagan Gavgamela qishlog'i yaqinida Iskandar 1-oktabr kuni fors qo'shini bilan hal qiluvchi jang bo'ldi. Bu og'ir jangda Iskandar g'olib chiqib, uning raqibi Doro III jang maydonini tashlab Midiyaga chekindi. Iskandar qo'shinlari hech qanday qarshiliksiz jadallik bilan butun Mesopotamiyani bosib o'tib, Suza shahri va ahmoniyalar davlatining markaziy hududlariga kirib bordilar. Babil va boy Suza shahri Eronning muqaddas markazi Persepol jangsiz bosib olindi. Suzada bosqinchilar Eron davlati xazinasini bosib oldilar, er. aw. 330-yil Persepol saroyini yondirish bilan Iskandar fors davlati ustidan g'alabasini ramziy belgiladi. Iskandar er. aw. 329-yilda Amudaryodan o'tib O'rta Osiyoga kirdi, bu yerda u mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchradi. Spitamen boshchiligida sak massagetlar uch yil davomida Iskandar qo'shinlariga qarshi turdilar. Noiloj qolgan Iskandar mahalliy zodagonlarni sovg'a-salom bilan o'zi tomuniga og'dirib olishga urindi, u So'g'd hokimi Oksiartni qizi Roksanaga uylandi. Rivoyatlarga ko'ra Iskandar O'rta Osiyoda o'z tayanch nuqtasi sifatida 12 shahar quradi. Tarixda ma'lum bo'lgani hozirgi Xo'jand shahri yaqinida Iskandariya Esxota

(Uzoqdagi Iskandariya) shahri, Afg'onistonda Hirot shahri yaqinida Iskandariya Ariya shahri. To'satdan Iskandarning qo'shini yurishni davom ettirishni istamay bo'ysunmay qo'ydi. Ikki kunlik muzokaralardan so'ng Iskandar yon berishgfa majbur bo'ldi. Vatanga qaytish to'g'risida buyruq berildi. Iskandar qo'shinlarini qaytishi ikki yilga cho'zildi, bir qism qo'shin dengiz orqali, bir qismi quruqlik yo'li bilan qaytdi. Qo'shinning har ikkala qismi er. aw. 324-yil Bobilda uchrashdi. Makedoniyani qadimgi poytaxti Pellaga qaytishni istamagan Iskandar o'z davlatining poytaxti qilib qadimgi shahar Bobilni tanladi. U Kaspiy dengizini o'rganish uchun tekshiruvchi ekspeditsiya tashkil qildi, Arabiston yarim oroli qirg'oqlarini tekshirishga buyruq berdi. Iskandar yurishlari natijasida g'aibda Adriatika dengizidan Sharqqa Hindistongacha, Shimolda Kavkaz tog'laridan janubda Nil daryosi o'rta oqimigacha cho'zilgan hududni qamrab olgan ulkan davlat vujudga keldi.' Bu davlat hududiy-etnik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bilan awalgi ahamoniylar davlatini eslatar edi. Iskandar o'zining ulkan davlatini uzoq boshqara olmadi. U er. aw. 323-yilda 32 yoshda Bobil shahrida vafot etdi. Iskandaming oiimidan so'ng uning ulkan davlati parchalana boshladi. Oxir-oqibatda u bosib olgan hududlarda Ellin davlatlari tizimi shakllandi.

**Xulosalar:** Qadimgi Makedoniya tarixida Aleksandr Makedonskiyning o'rni buyuk hisoblanadi, U shu juda katta davlat barpo etdiki uning davlati bir tomonda Ahamoniylarning davlatiga ham o'xshab ketardi. Shu bilan birga ham davlar arbob, buyuk sarkarda hamda ana shunday buyuk imperiyaning podshosi hisoblanadi. U yoshlik chog'laridanoq davlatini boshqarish bilimlari, harbiy bilimlar, sarkardalik bilimlarini o'rganadi. Aleksandr o'z davrining eng mashhur olimlaridan biri hisoblanadigan Aristotel ( Arastu ) ning shogirti hisoblanadi. U o'z darvriga yarasha buyuk davlat tuza olgan yosh hukumdorlardan biri hisoblanadi. Aleksandrning O'rta Osiyo madaniyatida ham o'rni buyuk hisoblanadi. Shuni aytish lozimki Aleksandr ning yurishalari natijasida O'rat Osiyoga ellinizm kirib keladi. Bu esa mahalliy aholi madaniyatida muhim ro'l o'ynaydi. Makedoniyalik Aleksandrning dunyo tarixida tutgan o'rni katta hisoblanadi...

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. R. Rajabov - "Qadimgi Dunyo tarixi" ( Qadimgi Sharq) Toshkent - ( Fan va texnologiya) 2009. 286 - 290 betlar.
2. A. Sagdullayev- "O'zbekiston tarixi" Toshkent -( Donishmand ziyosi) 2021. 200-202 betlar
3. A. Kabirov - " Qadimgi Sharq tarixi" Toshkent ( Tafakkur ) 2016. 276-280 betlar.
4. www.wikipedia.org
5. www.fayllar.org
6. www.arxiv.uz